Şerbetten bal içer.

Biliniz ki ben neyim,

Çimenlikte(ki) bekçi,

Çiçekten üretilip tatlı aş,

Ağzını tatlandırırım.

"Vız vız" türküsü, ezgisi var,

Bağımızda evi var.

Canla başla çalışır,

İşyeri çimenliktir.

Komşumunkine girsem

İki bin işçisi çalışıyor.

Çiçekten çiçeğe konar,

Şerbet toplar yola çıkar,

Toplar kendisi yemez,

Evine götürür o.

Kısaca bana ve sana

Kim adını söyler bana.

Dinlesen vız vız eder,

Çiçekten çiçeğe koşar.

Eğer dokunup değsen

İğne saplayıp gider.

Hiç durmaz sabah akşam.

Ev kurar katar kalabalık

Gül özünü toplar o,

İşe başlar durmaz hiç.

Bilir misiniz hangi Peri?

Bilin! Bu (nu hadi)!

Ari:

Zuv-zuv etib zuvagʻay,
 Moʻylabini taragʻay.
 Qamich boʻgʻot ichidan
 Zambar toʻqib qaragʻay.
 Kim bu zambarni buzsa,
 Boʻgʻotdan qilich uzsa,
 Nayzasini chiqarib,
 Shu kishini talagʻay (282: 2244)
 Chayon emas — chaqagʻon,
 Qush ham emas — uchagʻon.
 Ertayu kech oʻzini
 Biz-bizlab maqtab qogʻon (282: 2245)
 Qush emas, uchagʻon.
 Chayon emas, chaqagʻon,
 Ertayu kech oʻzini
 Biz-bizlab qogʻon.
 Ashulasi: zuv-zuv,
 Dutorlari: gʻuv-gʻuv (283: 2246)

Ninachi:

Koʻrinishi filga oʻxshar,
 Oyoqlari qilga oʻxshar (283: 2247)

Kapalak:

Pildir-pildir silkinar,
 Tanda ikki yaprogʻi.
 Tursa kulga berkinar,
 Qaysi gulning oʻrtogʻi (283: 2248)
 Pir-pir uchar ini boʻlmas,
 Kunduz boʻlib, tuni boʻlmas,
 Qush kelganda qayda yurar,
 Uning shovqin-uni boʻlmas (283: 2249)

Arı

Tez tez! der, acele eder,
 Bıyığını tarar.
 Kamış gölgelik içinden
 Sepet dokuyumaya bakar.
 Kim bu sepeti bozsa,
 Gölgeleikten kılıç kesse
 Mızrağını çıkarıp
 Bu kişiyi yaralar.
 Akrep değil çok sokar,
 Kuş da değil çok uçar.
 Sabah akşam kendini
 Vız vız diye methedip çarpar.
 Kuş değil, çok uçar.
 Akrep değil, çok sokar,
 Sabah akşam kendini
 Vız vız deyip itişir.
 Şarkısı: tez tez,
 Sazları: vız vız.

Yusufçuk

Görünüşi file benzer,
 Ayakları kıla benzer.

Kelebek

Fıldır fıldır silkinir,
 Tende iki yaprağı.
 Doğrusa küle gizlenir,
 Hangi(si) gülün ortağı?
 Pır pır uçar sesi yok,
 Gündüz vardır gece yok,
 Kuş geldiğinde nerede gezer,
 Onun sesi gümbürtüsü olmaz.

Gullarda bir gul koʻrdim,
 Yaproqlari yaltiroq.
 Uzmoqchi boʻlgan edim,
 Uchib ketdi u shu choq (283: 2251)
 Gul bargimas haryon chopgan,
 Yaproqmas oʻyni qilgan.
 Qanoti, shoxi xil-xil,
 Uchishiga men qoyil.
 Bilasizmi, oʻrtoqjon,
 Bu nima? Kellar qachon? (283: 2252)
 Qishda qochaman,
 Bahorda paydo boʻlaman.
 Yozda quvonaman,
 Kuzda yana yotib qolaman (283-284:
 2253)

Qoʻngʻiz:

Qora, ammo qargʻa emas,
 Shoxlari bor, hoʻkiz emas.
 Olti oyoq — tuyoqsiz,
 Uchadi, gʻingʻillaydi,
 Oʻtirib yer kovlaydi (284: 2254)

Qora qurt:

Niynachining⁸⁶ polvoni,
 Ostida bor narvoni.
 Yuragida yonar oʻt,
 Buning nomi...? (284: 2255)

Oʻrgimchak:

İpin chuvib har yoqqa,
 Tushar uyning shiftidan.
 Keyin ovga chiqmoqqa,

Güllerde(n) bir gül gördüm
 Yaprakları pasparlak
 Koparmayı denedim.
 Uçup gitti o, bu çağ.
 Gül yaprağı değil her yana koşan
 Yaprak değil oyun oynayan.
 Kanadı, boynuzu çeşit çeşit,
 Uçmasına ben kail.
 Bilir misiniz, a dostlar.
 Nedir, bu gelip giden?
 Kışta(n) kaçırım,
 Baharda ortaya çıkarım.
 Yazda sevinirim,
 Güzün yine yatarım.

Böcek

Kara ama karga değil,
 Boynuzları var öküz değil,
 Altı ayak, toynaksız,
 Uçar vınlar.
 Oturup yer kazar.

Bozkır örümceği

Yusufçuğun pehlivanı,
 Altında var merdiveni.
 Yüreğinde yanar od,
 Bunun adı...?

Örümcek

İpini açar her yana
 İner evin tavanından.
 Sonra ava çıkmaya

⁸⁶ sözlüklerdeki yazımı ninachi şeklindedir.

To‘r to‘qiydi ipidan (284: 2256)

Sochning toridan ham ingichka

İpning ustida yurar (284: 2257)

Pashshaga qo‘yar tuzoq,

İzg‘ib burchakma-burchak... (284: 2258)

Burchakni topib olib,

Hunarini ishga solib,

To‘r to‘qiydi tinmayin,

To‘qigan to‘ri ipsiz (284: 2259)

Chumoli:

Qator-qator qora kervon,

Erteyu kech tashir don (284: 2260)

Yoz bo‘yi hech tinmasdan

Don, non tashir pitirlab.

Yerda, tomda, daraxtda,

Qirda yurar g‘irillab (284-285: 2261)

Mehnat qilar tinmayin,

Charchash nima bilmayin,

İnoq bo‘lib to‘q yashar,

Qishda muhtoj bo‘lmayin (285: 2262)

Mitti, oriqlar otim bor,

Beli ingichka qilday.

Ammo turmaydi bekor,

İshda qudrati filday (285: 2263)

Mitti-mitti qora otim,

Ba‘zisining bor qanoti.

Yozda tinmay birga ishlar,

Jam bo‘lishib, birga qishlar (285: 2264)

Qoragina yo‘rg‘a ot,

O‘zi hach kishnamaydi.

Bellari nozik qilday,

Ağ dokur ipinden.

Saçın telinden de ince

İpin üstünde yürür.

Sivrisineğe kurar tuzak,

Dolanır köşe bucak.

Köşesini bulup alıp,

Hünerini işte gösterip

Ağ örer durmaksızın,

Ördüğü ağı ipsiz.

Karınca

Katar katar kara kervan

Sabah akşam taşır tane.

Yaz boyunca hiç durmadan

Tane, ekmek taşır aceleyle.

Yerde, damda, ağaçta,

Kırda yürür gır gır.

Çok çalışır dinlenmeden,

Yorgunluk nedir bilmeden,

Birlik olup tok yaşar,

Kışın muhtaç olmadan.

Küçük, cılız atım var,

Beli ince kıl gibi.

Ama durmaz o işsiz,

İşte gücü fil gibi.

Küçük küçük kara atım,

Bazısının var kanadı.

Yazın durmadan hepsi işler,

Toplanıp birlikte kışlar.

Karacık yorga at,

Özü hiç kışnemez.

Belleri nazik kıl gibi,

Bedani tishlamaydi (285: 2265)
 İşhlaydi tinimi yo‘q,
 Bir nafas qo‘nimi yo‘q,
 O‘zining beli ingichka,
 Lekin ega zo‘r kuchga... (285: 2266)

Pashsha:

Sochmasa ham hech zahar,
 Turgan-bitgani zarar.
 Yo‘q kulbasin tayini,
 O‘ldirmoq kerak uni (285: 2267)
 O‘zi kichik hasharot,
 Xiralik unga odat (285: 2268)
 Sochmasa ham zahar,
 Turgan-bitgani zarar.
 Yo‘q qilmoq kerak uni (285: 2269)

Bedeni dişlemez.
 Çalışır durması yok,
 Bir nefeslik yeri yok,
 Özünün beli incecik,
 Ama sahip büyük güce...

Sivrisinek

Saçmasa da hiç zehir,
 Varlığı yokluğu zarar.
 Yoktur yeri yurdu,
 Öldürmek gerek onu.
 Özü küçük haşerat
 Muzırlık ona âdet
 Saçmasa da zehir,
 Varlığı yokluğu zarar.
 Öldürmek gerek onu.

4.2.18. Daraxt, Mevali Daraxtlar va Mevalar: Ağaç, meyve ağaçları ve meyveler

Daraxt:

Kiyinib issiq yozda,
 Yechinadi ayozda (286: 2270)
 Yozda salqini yaxshi,
 Qishda yolqini yaxshi (286: 2271)
 Ko‘k xalat kiygan doktor,
 Ukol ignasi yo‘qdir.
 İşhxonasi gulbog‘lar,
 O‘rmonzor, dala, tog‘lar.
 Berar kislopod – havo,
 Ming derdga bo‘lar davo (286: 2272)

Chinor:

Sochlarim tolim-tolim,
 Topa qol, bo‘lsang olim.

Ağaç

Giyinip sıcak yazda,
 Soyunur o ayazda.
 Yazın serinliği güzel,
 Kışın ateşi güzel.
 Yeşil giysisini giyer doktor,
 Batan iğnesi yoktur.
 İş yeri, gül bahçeleri,
 Ormanlık, ova, dağlar.
 Verir oksijen hava,
 Bin derde olur deva.

Çınar

Saçlarım tutam tutam,
 Âlim isen buluver!

Minoraman uzunchoq,
G'ishtlarim sadaf-munchoq (286: 2273)

Terak:

Minoraga bo'y cho'zib,
Minora bo'lolmayman.
Oyog'imdan kessalar,
Bir joyda turolmayman.
Qurilishga boraman,
Uyga kirsangiz agar,
Ostingizdan, ustingizdan,
Yoningizdan boqaman (286-287: 2274)

Archa:

O'zi o'rmonda bo'lar,
Qishin, yozin bir ko'ylakda turar (287: 2275)
Tog'da, bog'da yashaydi,
Qishin, yozin yashnaydi (287: 2276)
Qishin-yozin barobar,
Ko'm-ko'k turar barglar,
O'zi ming yoshga yetar (287: 2277)
Tog'larda o'sar joni,
Qoyalarning chiroyi,
Qish kelganda, o'rtoqjon,
Uyimizda u mehmon... (287: 2278)
Yashil sochli malika,
Taqinchog'i xilma-xil:
Mehnat qilib davrada,
Olqishlaymiz yilma-yil (287: 2279)
Qishin-yozin yashnaydi,
Kiyimlarin yechmaydi (287: 2280)

Tol daraxti:

Minareyim uzuncuk,
Tuğlalarim sedef boncuk.

Kavak

Minareye boy uzanıp,
Minare olamam ben.
Ayağımdan kesseler,
Bir yerde duramam ben.
İnşaata giderim.
Eve girseniz eğer,
Altınızdən üstünüzdən
Yanınızdən bakarım.

Çam

Özü ormanda olur,
Kışın yazın tek gömlekte durur.
Dağda bağda yaşar,
Kışın yazın parlar.
Kışın yazın birlikte
Yemyeşil durur yapraklar
Özü bin yaşına ulaşır.
Dağlarda biter canı,
Kayaların güzeli,
Kış geldiğinde, dostçuğum
Evimizde o misafir...
Yeşil saçlı melike,
Takıları türlü türlü
Çalışıp o sahnede,
Alkışlarınız yıldan yıla.
Kışın ve yazın o parlar.
Giysilerin çıkarmaz.

Söğüt ağacı

Bosh ko'tarmas yuqari,
 Daraxtlarning kamtari.
 O'rtog'iga tenglashgan,
 Ammo o'zi engashgan (287: 2281)
 Qishda uxlab yalang'och,
 Bahor qo'yar yashil soch (287: 2282)
 Yashil savatning boshi,
 Suvga qarab egildi.
 Chilvir-chilvir sochlari,
 Zilol suvda yuvildi (287: 2283)

Tol bargi:

Tolda quyon qulog'i,
 O'rtasida ulog'i (288: 2284)

Tol bargidan qilingan chambarak:

Tol bargak taqib singlim,
 Maqtanadi: sochim uzun.
 Qo'zi kelib ortidan
 Yeb qo'ydi uni butun (288: 2285)

Mevali daraxt:

Ko'klam kezi bezatib,
 Yozda salqin beradi.
 Kuz paytida ovqatu —
 Qishda issiq beradi (288: 2286)

Yong'oq:

Ikki tomoni po'stlog',
 O'rtasi sarig' yoq (288: 2287)
 Mevasi bor yum-yumaloq,
 Rang olinar po'stlog'idan,
 Spirt chiqar yaprog'idan... (288: 2288)
 Yum-yumaloq yog'och xumcha,
 Ichi to'la yog'li kulcha (288: 2289)

Başını kaldırmaz yukarı,
 Ağaçların gösterişsizi,
 Arkadaşıyla yan yana
 Ama özü eğiktir.
 Kışta uyuyup çıplak,
 İlkbaharda bırakır yeşil saç.
 Yeşil sepetin başı,
 Suya doğru eğildi.
 İnce ince saçları,
 Temiz suda yıkandı.

Söğüt yaprağı

Dalda tavşan kulağı,
 Ortasında oğlağı.

Söğüt yaprağından yapılan çember

Söğüt dalı takıp kız kardeşim,
 Övünür: Saçım uzun.
 Kuzu gelip ardından
 Yiyip bıraktı onu bütün.

Meyve ağacı

Bahar faslı bezenir
 Yazın serinlik verir,
 Güzün yemek olur,
 Kışın bizi ısıtır.

Ceviz

İki tarafı kabuk,
 Ortası tereyağı.
 Meyvesi var yusyuvarlak,
 Renk alınır kabuğundan,
 Alkol çıkar yaprağından...
 Yusyuvarlak ahşap küpçük,
 İçi dolu yağlı çörek.

Daraxtlarning shoxida,
 Qator qozon osig'liq,
 Tovog'in ochib boqsang,
 İchi to'la moy jiq-jiq (288: 2290)
 Dum-dumaloq jajji oy,
 Chaqib yesang, g'ij-g'ij moy (288: 2291)
 Po'sti qattiq va cho'tir,
 O'zi shardak dumaloq,
 İchida yashar totuv —
 To'rtta qadrdon o'rtoq (288: 2292)

Olma:

Qizil gulday, gul emas,
 Hidi guldan kam emas.
 O'zi dumaloq, tuxum emas,
 Yesang shirin, shakar emas (289: 2293)

O'rik:

Bir tup daraxt,
 Tanasi zumrad.
 Bargi kumush,
 Mevasi oltin (289: 2294)
 Tusin ko'rib zar dedim,
 Totib asal qand yedim (289: 2295)
 Sariqligini zar dedim,
 Tatib asal-qand dedim (289: 2296)

Tut daraxti:

Tik qomat o'sar har choq,
 Bargi yashil, yaproq,
 İpak qurt yer muloyim,
 Hosili atlas doim (289: 2297)
 Shoxlardagi oq munchoq,
 Duv to'kildi bahorda,

Ağaçların dalında,
 Katar kazan asılı
 Tabakasını açıp baksan,
 İçi dolu yağ bütün bütün.
 Yusuvarlak ufak ay,
 Kırıp yesen, top top yağ.
 Kabuğu sert ve yassı,
 Özü balon gibi yuvarlak,
 İçinde yaşar dostane.
 Dört değerli ortak.

Elma

Kırmızı gül gibi, gül değil,
 Kokusu gülden eksik değil.
 Özü yuvarlak, yumurta değil,
 Yesen tatlı şeker değil.

Kayısı (ağacı)

Bir tür ağaç,
 Teni zümrüt.
 Yaprığı gümüş,
 Meyvesi altın.
 Tüyünü görüp sarı dedim,
 Tadıp bal şeker yedim.
 Sarılığına altın dedim,
 Tadıp bal şeker dedim.

Dut ağacı

Dik boyu uzar her zaman,
 Yaprığı yeşil yaprak,
 İpek böceği yer mülayim,
 Mahsulü atlas(tır) daima
 Dallardaki ak boncuk,
 Çabuk döküldü baharda,

Yesang uni shu choq,
 Ta'mi asal, top, o'rtoq! (289: 2298)
 Oppoq shirin donalar,
 Daraxtlarning boshida.
 Pishsa ketmas tegidan,
 Katta-kichik bolalar (289: 2299)
 Bol yig'ib pishar yumshoq,
 Unga har yil bahor choq
 Ipak qurt olqish o'qir,
 Bargidan atlas to'qir (289: 2300)

Behi:

Sariq duxobaga o'ralgan,
 Pishadi oltinlanib (289: 2301)
 Malla tukli, sap-sariq,
 Murabbosi mazalik,
 Palovga bossa bo'lar,
 Podvalga ossa bo'lar (290: 2302)
 Duxobaga o'ralib,
 Pishadi oltinlanib,
 Palovda hil-hil ilik,
 Toping bog'dan siz tanib (290: 2303-2304)

Shaftoli:

Mevasi ko'p bargidan,
 Suv arimas tagidan.
 Behi emas ko'p tuki,
 Mazasi ham ko'p totli (290: 2305)
 Katta tuxumni uzsam,
 To'ni bordir beqasam.
 O'zi shirindir yesam (290: 2306)

Jiyda:

Bitta qopda to'la un,

Yesen onu shu an,
 Lezzeti bal, bul ortak!
 Apak shirin taneler,
 A'gachlarin boshida.
 Olgunlashsa chikmaz altindan,
 Buyuk kucuk çocuklar.
 Bal dolup piser yumusak,
 Ona her yıl bahar vakti
 İpek böceği alkış sunar,
 Yaprğından atlas dokur.

Ayva

Sarı kadifeye sarılır
 Pişer altınlaşır.
 Kumral tüylü, sapsarı,
 Dört köşesi lezzetli,
 Pilava koysan olur,
 Mahzene assan olur.
 Kadifeye sarınıp,
 Pişer altın gibi kızarıp,
 Pilavda çok kaynayan ilik
 Bulun! bahçeden siz bilip.

Şeftali

Meyvesi çok yaprağından,
 Su eksilmez altından.
 Ayva değil çok tüyü,
 Lezzeti de pek tatlı.
 Büyük yumurtayı kessem
 Giysisi vardır kumaştan.
 Özü tatlıdır yesem.

İğde

Bir kapta dolu un,

O'rtasida bir ustun (290: 2307)

O'zi daraxt kerakdir,

Na o'rik, ne terakdir.

Tanasi juda tetik,

Lekin, qiziq, o'smas tik.

Mevalari kech pishar,

Dardga davo deyishar.

Yeyishga bor: ustun, un, qop (290: 2308)

Yaproqlari kumushdan,

Uni xalqim "non" deydi.

Mevalari yoqut – qand,

Har kim yesa jon deydi.

Yer o'padi novdasi

Rosa hosli qilsa u, –

Cho'g'day marjon tushar duv (290: 2309)

Bir daraxt bor, bargi kumushdan,

Mevasi oltindan. Bu nima? (291: 2310)

Anjir:

Gulsiz meva qiladi,

Ko'p yesang — til shiladi.

g'il-g'ildirak oy kulcha,

Bu nima, kim biladi (291: 2311)

Anor:

Kichkina bir ombor,

Ichida ming tog' bor (291: 2312)

Olma, behidek do'sti bor

Ustida qalin po'sti bor.

Ich to'la yoqut dona

Suyib yeymiz qona-qona (291: 2313)

Dum-dumaloq shar o'zi,

Po'sti qalin —qirmizi.

Ortasında bir sütun.

Özü ağaç olmalı.

Ne kayısı, ne kavaktır.

Vücudu çok dinç,

Fakat garip, uzamaz dik.

Meyveleri geç olur.

Derde deva derler.

Yemeğe var!: sütun, un, torba.

Yaprakları gümüşten,

Ona halkım "ekmek" der.

Meyveleri yakut, şeker,

Her kim yese can der.

Yer öper filizi

Çok olgunlaşınca o,

Köz gibi mercan düşer çabucak.

Bir ağaç var yaprağı gümüşten,

Meyvesi altından. Bu nedir?

İncir

Çiçeksiz meyve verir,

Çok yesen, dil soyulur.

Yusyuvarlak ay çörek,

Bu nedir, kim bilebilir?

Nar

Küçücük bir ambar

İçinde bin dağ var.

Elma, ayva gibi dostu var

Üstünde kalın postu var.

İçi dolu yakut tane

Sevip yeriz kana kana

Yusyuvarlak balon(/küre) özü,

Postu kalın, kırmızı.

Donasi zich, yonma-yon,
 Tizilgan yoqut marjon (291: 2314)
 Mayda yoqutdan qizil,
 Shirin, nordon, xilma-xil,
 Qalin taxir po'sti bor,
 Hamma yerda do'sti bor (291: 2315)
 Koptok desam, og'ir-zil,
 Yum-yumaloq, qip-qizil.
 İchi to'la yoqut ko'z,
 Yesang maza, kelsa kuz (291: 2316)
 Piyoladek keladi,
 Katta va kichikligi.
 Olcha suvga o'xshar,
 Nordon va chuchukligi.
 Birini sanab ko'ring,
 Yuzga yaqin doni bor (291: 2317)
 Daraxtda to'q-qizil bir olma pishdi
 İkkiga ajratsam munchoqlar tushdi (291-
 292: 2318)
 Dum-dumaloq yaltirar,
 İchida qizil sharbat.
 Faqat sharbat deb o'ylama,
 Urug'i bordir albat (292: 2319)
 Pichoq ursam qon chiqar,
 Hamda g'uj-g'uj don chiqar (292: 2320)
 Po'sti oqish, yungi yo'q,
 Yersang ichi g'ij-g'ij cho'g' (292: 2321)
 O'zi qizil, do'ndiqcha,
 Marjon to'la sandiqcha (292: 2322)
Anjir:
 Butoqchada qaynab bitar,

Tanesi sıkı, yan yana,
 Dizilmiş yakut mercan.
 Küçük yakuttan kızıl
 Şirin, ekşimsi, türlü türlü,
 Kalın buruşuk postu var.
 Her yerde dostu var.
 Top desem ağır çok ağır,
 Yusuvarlak, kıpkızıl.
 İçi dolu yakut göz,
 Yesen lezzet, gelse güz.
 Kadeh kadar olur
 Büyüklüğü küçüklüğü
 Vişne suyuna benzer
 Ekşiliği tatlılığı.
 Birini sayıp görün
 Yüze yakın tane var.
 Ağaçta kıpkırmızı bir elma pişti,
 İkiye böldüğümde boncuklar düştü.
 Yusuvarlak parlar,
 İçinde kızıl şerbet,
 Sadece şerbet diye düşünme,
 Tohumu vardır elbette.
 Bıçak vursam kan çıkar,
 Hem de top top tane çıkar.
 Kabuğu akça, yünü yok,
 Yersen içi top top kor.
 Kendi kızıl, dolgunca,
 Mercan dolu sanduka.
İncir
 Dalcıkta kaynayıp biter,

Kulcha nonga o'xshab ketar (292: 2323)

Gilos:

Munchoq desam yumshoq-ku,

Dum-dumaloq, ushoq-ku.

Ranglarimi, qon-qizil,

Yesang maza ko'p asil ... (292: 2324)

Olcha daraxti:

Egiladi yergacha, sinmas biroq,

Taqir qizil isirg'a besanoq.

Ko'ylak kiyar yam-yashil, yarashar,

Isirg'asin bolalar talashar (292: 2325)

Uzum:

Marjon-marjon yumaloq,

Yaproqlari shapaloq,

Qora, qizil, sariq, oq.

Yeb ko'rmasdan o'ylab top (292: 2326)

Mevalarning ichida,

Bir ajoyib xili bor.

Yesang egar sen uni,

Shirini tiling yorar.

Har bir boshi bir necha,

Donalardan iborat.

Kuzda uning poyasi,

Yerga ko'milar faqat (292-293: 2327)

Bir bandda tizilib, qator besanoq,

Yashaymiz barchamiz hamjihat inoq.

Sharbatu husnni berar kekxa zang,

Ko'p dardga davomiz, pishganda yesang
(293: 2328)

Qulupnay:

Qip-qizulu anormas,

Külçe ekmeğe benzeyip gider.

Kiraz

Boncuk desem yumuşak ama,

Yusyuvarlak (desem) upufak ama,

Renkleri de kan kıızılı

Yesen tadı çok bal(lı)

Vişne ağacı

Eğilir yere kadar kırılmaz ama,

Takar kıızıl küpe sayısız,

Gömlek giyer yemyeşil, yaraşır,

Küpesini çocuklar yağmalar.

Üzüm

Mercan mercan yuvarlak,

Yaprakları şaplak,

Kara, kıızıl, sarı, ak.

Yemeden düşünüp bul!

Meyvelerin içinde

Bir acayip türü var.

Yersen eğer sen onu

Tatlısı dilini yarar.

Her bir başı bir kaç

Tanelerden ibaret.

Güzde onun sapı,

Yere gömülür

Bir ipte dizilmiş sayısız katar,

yaşarız hepimiz dost(ça) hep birlikte

Şerbeti ve güzelliği verir, olgun tanesi

Birçok derde devayız, olduğunda yersen

Çilek

Kıpkırmızı nar değil,

Cho'g'ga o'xshar yonolmas.
Mo'ralaydi egatdan,
Joy oladi savatdan (293: 2329-2330)

Tut

Bahor kelsa ochilar,
Bog', yo'llarga sochilar.
O'zi qor kabi oppoq,
Erimaydi u biroq (293: 2331)
Nega dov-daraxt oppoq,
Hozir qishmas-ku, bahor.
Ko'kda oftob charaqlar,
Daraxtda erimas qor (293: 2332)

Kora benzer tutuşamaz.
Gözetler arktan,
Yer alır sepetten.

Dut

İlkbahar gelince açılır,
Bahçeye, yollara saçılır.
Özü kar gibi apak,
Erimez o fakat
Neden her ağacı apak,
Şimdi kış değil **ki** bahar
Gökte güneş ışıldar
Ağaçta erimez kar.

4.2.19. Ekin va O'simliklar (Tarla ve bitkiler)

Paxta:

Oltin kosada toshib turar,
Dala husnin ochib turar (294: 2333)
Ekin gullab ochilar,
Meva tugar, yetilar.
Qaysi ekin mevasi,
Kiyim bo'lib to'qilar? (294: 2334)
Oq gulim-oppoq gulim,
Ushlab ko'rsam yumshoq gulim,
Terib xirmon qilgan qushim,
Bo'lib ketdi tog'-tog' gulim (294: 2335)
Uzun tola moyi oq,
Gulkosa-chipor chanoq
Mahsulini kiyanmiz,
Barchamiz boshdan-oyoq (294: 2336)
Ko'm-ko'k yaproq orasidan qaraydi,
Jilmayadi, tebranadi, yayraydi.

Pamuk

Altın kâsede taşıp durur,
Tarla güzelliğini açıp durur.
Ekin filizlenip açılır,
Meyve biter, yetişir.
Hangi ekin meyvesi,
Giysi olup dokunur?
Ak çiçeğim, apak çiçeğim,
Yakalayırsam yumuşak çiçeğim
Harmanı derip durur kuşum,
Dağ dağ oldu çiçeğim.
Uzun ip, yağı ak,
Çiçek tablası noktalı (/benekli) koza
Mahsulünü giyeriz,
Hepimiz baştan aşağı.
Yemyeşil yaprak arasından bakar,
Yüzünü gösterir, teprenir, keyif alır.

Yumshoqqina oppoq yuzin ko'rsatib,
Beri kel, deb chevar qizni chorlaydi (294:
2337-2338)

Bahosi oltinga teng,
Olgan o'rni juda keng (294: 2339)
Ochilmaydi u bahor,
Kech kuzda yetiladi,
U kiyim etiladi.
Toping-chi, bu qanday gul,
Uzsang ham so'lmas butkul (294-295: 2340)
Bir yulduz bor ko'p qiymatli,
To'rt qirrali kosasi,
Kosasiga bulut to'lgan,
Bulut ichida bolasi... (295: 2341)
O'zi oppoq, yumshoq,
Ichida bor donasi.
Tersang etak to'ladi,
Yulduzning besh xonasi (295: 2342)
Oppoq, oppoq, oppog'im.
Tivitdan ham yumshog'im.
Ichi to'la oq yog'im,
To'n ko'ylagim, belbog'im,
Yerdan ungan boyligim (295: 2343)
Joylashgan besh barmoqqa,
Dong'i ketgan har yoqqa.
Vatani O'zbekiston,
Tarbiyasi dehqon (295: 2344)
Oldin gul edi nuqul,
Gul yong'oq bo'ldi butkul.
Yorilib ketgach yong'oq,
Yana gul chiqdi oppoq,

Yumuşacık apak yüzünü gösterip
Beri gel deyip terzi kızı çağırır.

Değeri altına denk,
Kapladığı yeri çok geniş.
Açılmaz o ilkbahar,
Güz sonu yetişir,
O(ndan) giysi yapılır.
Bulun hadi! Bu hangi çiçek?
Koparsan da solmaz tamamen.
Bir yıldız var çok kıymetli,
Dört kenarlı kâsesi,
Kâsesine bulut dolmuş,
Bulut içinde balası...
Özü apak, yumuşak,
İçinde var tanesi.
Dersen etek dolar,
Yıldızın beş hanesi.
Apak apak apağım,
Tüyden de yumuşağım.
İçi dolu ak yağım.
Kaftanım, gömleğim, kemerim,
Yerden yükselen zenginliğim.
Yerleşmiş beş parmağa,
Ünü gitmiş her yana,
Vatani Özbekistan,
Yetiştiricisi çiftçi.
Önce çiçek idi sadece,
Çiçek tomruk oldu sonra
Yarılıp açılınca tomruk,
Yine çiçek çıktı apak,

Juda ham lo'ppi o'zi,
 Tagida bor yulduzi.
 Terib uysang, bo'lar tog',
 Urug'idan chiqar yog' (295: 2345)
 Ulkan oppoq dasturxon,
 Dasturxon yoygan dehqon.
 Shod etib elu yurtin,
 To'kibdi duru oltin (295: 2346)
 Ichi moy, usti momiq,
 Burunsiz olar nafas.
 Nihol bo'b chiqsa to'liq,
 Oq oltin bo'lar bo'liq (295: 2347)
 Qor emas oppoq,
 Par emas yumshoq (296: 2348)
 Rangi oppoq qor emas,
 Yumshoqqina par emas.
 Qimmatbaho narsadir,
 Mehnat bilan o'sadir,
 O'ylab toping dilbarim,
 Uning oti nimadir (296: 2349)
 U bahorda unadi,
 Yozda kuchga to'ladi,
 Kuzda pishib yetilib,
 Tog'-tog' xirmon bo'ladi (296: 2350)
 Onasidan kiyim-boshim,
 Bolasidan yog'li oshim (296: 2351)
 Pardek yumshoq onasi,
 Yog'li pistoq bolasi (296: 2352)
 Barglari zilol dengiz,
 Har tupida qirq yulduz,
 Kuz faslida lo'ppi yuz,

Çok da bodur özü,
 Altında var yıldızı.
 Derip yıǵsan olur daǵ,
 Tohumundan çıkar yağ.
 Büyük apak sofrası,
 Açar sofrayı çiftçi
 Şad edip halkı yurdu
 Dökmüş duru altın.
 İçi yağ, üstü tüy,
 Burunsuz alır nefes.
 Filizlenip çıksa bütünıyla
 Ak altın olur kocaman.
 Kar değil apak,
 Tüy değil yumuşak.
 Rengi apak, kar değil,
 Yumuşacık, tüy değil.
 Kıymetli nesnedir,
 Çalışma ile büyür,
 Düşünüp bul dilberim,
 Onun adı nedir?
 O baharda seslenir,
 Yazda güç toplar,
 Güzde olgunlaşıp yetişir
 Dağ dağ harman olur.
 Anasından üstüm başım,
 Balasından yağlı aşım.
 Tüy gibi yumuşak anası,
 Yağlı fıstık balası.
 Yaprakları saf deniz
 Her çalıda kırk yıldız
 Güz faslında bodur yüz,

Bu nima, ayt-chi, Qunduz? (296: 2353)

Kuz faslida ochilar,

Oq gullarning chamani.

Koʻrku-chiroyi bilan,

Shod etadi hammani (296: 2354)

Upa surgandek yuzi,

Yulduzdek chaqnar koʻzi.

Ochilganda jajji oy,

İchi toʻla jiqqa moy (296: 2355)

Oq gulim, oppoq gulim,

Ushlasam yumshoq gulim.

Uni terib yiqqan edim,

Boʻlib ketdi togʻ-togʻ gulim (296: 2356)

Koʻsak:

Musht tugilgan besh barmoq,

Tuxumga oʻxshar oʻrtoq,

Yozilsa besh barmogʻi,

Koʻrinar hosil qaymogʻi (297: 2357)

Bugʻdoy:

Birini yerga tikdim,

Bir hovuch boʻlib chiqdi (297: 2358)

Qoʻynidagi qator-qator oltinlar,

Joy egasin uzluksiz toʻydirar,

Men aytaman bu narsalar kimda bor,

Javobini bering, kim topar? (297: 2359)

Makkajoʻxori:

Oʻzi juda ham boʻydir,

Marvaridday doni bor.

U bor yerda moʻlchilik,

Sut-qatiqqa toʻqchilik (297: 2360)

Yarim metr boʻyi bor,

Bu nedir, bil bakalım Kunduz!

Güz mevsiminde açılır,

Ak çiçeklerin çimeni.

Yüz güzelliği ile

Mutlu eder herkesi.

Pudra sürmüş gibi yüzü

Yıldız gibi parlar gözü.

Açıldığında minik ay,

İçi dolu yoğun yağ.

Ak gülüm, apak gülüm,

Alsam yumuşak çiçeğim

Onu derip yığar idim,

Dağ dağ oldu çiçeğim.

Pamuk kozası

Yumruk doğmuş beş parmak

Yumurtaya benzer ortak,

Açılsa beş parmağı,

Görünür mahsul kaymağı.

Buğday

Birini yere diktim.

Bir avuç olup çıktı.

Koynundaki sıra sıra altınlar,

Yer sahibini sürekli doyurur,

Ben söylerim bu nesneler kimde var,

Cevabını verin, kim bulur?

Mısır

Özü pek de uzun,

İnci gibi giysisi var

Onun olduğu yerde bolluk,

Süte katığa tokluk.

Yarım metre boyu var,

Yetti qavat to'ni bor.
 Sadaf kabi tishlari,
 Ġpakdek soqoli bor (297: 2361)
 Yo'rgaklangan malikam,
 Tilla sochi bir tutam (297: 2362)
 Malikamning bo'yi yetgan,
 Chiroylidir o'ta ketgan,
 Jamoliga bir qarang-a,
 Oltin sochi xo'b yarashgan (297: 2363)
 Bug'doy emas, na sholi,
 Ġpakdayin soqoli.
 Marvaridday oq doni,
 Ko'p yaproqli har yoni (297: 2364)
 Boshida bor kokili,
 Belidadir hosili (297: 2365)
 O'sar ko'kka bo'y cho'zib,
 Qulochday bargin yozib,
 Xipchabel, zarrin soqol:
 Tishlari zich, dur misol (298: 2366)
 Qirradi ko'p, tosh emas,
 No'xotsho'rak, osh emas,
 Yesang o'zing bilasan,
 Juda maza qilasan (298: 2367-2368)
 Bir o'simlik o'sadi,
 Bo'yidan baland bo'yi.
 Ekinlarning ichida,
 Yuksak uning obro'yi.
 Bilasizmi u nima?
 Go'sht, sut, yog'ning bazasi,
 Urug'idan pishar non,
 Shiringina mevasi (298: 2369)

Yedi kat giysisi var.
 Sedef gibi dişleri,
 Ġpek gibi sakalı var.
 Kundaklanmış Melikem,
 Altın saçı bir tutam.
 Melikemin boyu uzun,
 Güzelden öte güzel,
 Yüzüne bir baksan a!
 Altın saçı hoş yaraşan
 Buğday değil ne de çeltik,
 Ġpek gibi sakalı.
 Ġnci gibi ak tanesi (/tohumu)
 Çok yapraklı her yanı.
 Başında var kâkülü,
 Belindedir mahsulü.
 Yetişir göğsü boy uzanıp,
 Kulaç gibi yaprağın açıp
 İnce bel, altın sakal
 Dişleri yoğun (sıkı), inci misal.
 Köşesi çok, taş değil,
 Nohut çorbası, aş değil,
 Yiyince sen öğrenirsin,
 Çok lezzetli yaparsın.
 Bir bitki yetişir,
 Boyundan uzun boyu.
 Ekinlerin içinde,
 Yüksek onun itibarı.
 Bilir misiniz o nedir?
 Et, süt, yağın temeli
 Tohumundan pişer ekmek,
 Pek şirin meyvesi

Uzumdak g'uj bosh bo'lar,
 Totli go'ja osh bo'lar.
 Agar bersang sigirga,
 Yelini sutga to'lar (298: 2370)
 Eksang olasan barvaqt,
 Ham ovqatu, ham yemish.
 Qo'y, echki ve sigirga
 Foydasi juda ko'pmish (298: 2371)
 Sochlarim tolim-tolim,
 Topaqol do'stim Olim.
 Minoraman uzunchoq,
 G'ishtlarim sadaf munchoq (298: 2372)
 Egatlarga terilib,
 Oq shohiga o'ralib,
 Choldek qo'yadi soqol,
 Silkinar kelsa shamol,
 Bo'yi bo'yingdan oshar,
 Hosili to'lib-toshar (298: 2373)

Sholi:

Taram soyali qiz to'dasi,
 Suvda yotar kun kechasi.
 Suvda yotib, suvda to'ymay,
 Sakson kunda savag'dadir,
 To'qson kunda tovoqdadir (299: 2374)

Loviya:

O'zi juda hosildor,
 Qornida qora xoli bor.
 Uzun, yashil uychada
 Yotadi qator-qator (299: 2375)
 O'zi o'xshar buyrakka,
 Oq ko'ylakli qora qosh.

Üzüm gibi yoğun baş olur,
 Tatlı göce, aş olur.
 Eğer versen sığıra,
 Memesi süte dolar.
 Eksen alırsın vaktinde,
 Hem öğün(/yemek) hem meyve
 Koyun, keçi ve sığıra
 Faydası pek çokmuş.
 Saçlarım tutam tutam,
 Buluver dostum Âlim.
 Minareyim uzuncak
 Tuğlarım sedef gibi.
 Arklara derilip,
 Ak şaha sarılıp,
 İhtiyar gibi bırakır sakal,
 Silkinir gelse rüzgâr,
 Boyu boyunu aşar,
 Mahsulü dolar taşar.

Çeltik

Aralıklı gölgeli (bir) kız yığını,
 Suda yatar gündüz gece.
 Suda yatar, suya doymaz.
 Seksen günde sapındadır.
 Doksan günde tabaktadır.

Fasulye

Özü çok mahsuldar,
 Karnında kara beni var.
 Uzun yeşil evcikte
 Yatar dizi dizi.
 Özü benzer böbreğe.
 Ak gömlekli kara kaş.

Pishirsangiz boʻlar osh,
 Pishirmasa misli tosh (299: 2376)
 Kiyik koʻzli qalam qosh,
 Undan boʻlar shirin osh. (299: 2377)

Kungaboqar:

Cheti gulli patir non,
 Ichi toʻla gʻij-gʻij don (299: 2378)
 Yalt-yalt qilib quyoshda,
 Tovlanadi bir lagan.
 Oʻsha lagan ichida,
 Saryogʻ, qaymoq toʻplaygan (299: 2379)
 Elak yogʻoch uchida,
 Ellik uy bor ichida.
 Bu uylarning egasi,
 Quyoshni sevar juda (299: 2380)
 Oʻzi ekin, gul taqar,
 Pishgach, yesang koʻp yoqar.
 Kun doim unga boqar,
 U doim kunga boqar (299: 2381)
 Kunga boqib toʻymaydi,
 Shu odatin qoʻymaydi. (299: 2382)
 Gullaganda oy dedim,
 Pishgach, chaqib moy yedim (300: 2383)

Yer yongʻoq:

Magʻizlarning asili,
 Yer ostida hosili.
 Poʻchogʻin pilla deysiz,
 Rangini tilla deysiz (300: 2384)
 Oʻzi pillaga oʻxshar,
 Ichi tillaga oʻxshar (300: 2385)
 Pilla kabi shakli bor,

Pishirseniz olur aş,
 Pişirilmezse sanki taş.
 Geyik gözlü, kalem kaş,
 Ondan olur şirin aş.

Günebakan

Kenarı çiçekli patir ekmek,
 İçi dolu top top tohum.
 Işıl ışıl olup güneşte,
 Parlar bir tabak.
 Aynı tabak içinde,
 Tereyağı ve kaymak toplayan.
 Elek ağaç ucunda,
 Elli ev var içinde.
 Bu evlerin sahibi,
 Güneşi sever epey.
 Özü ekin, çiçek takar,
 Olgunlaşınca yesen çok yakar
 Güneş daima ona bakar,
 O daima güneşe bakar.
 Güneşe bakıp doymaz,
 O âdetini bırakmaz.
 Çiçeklendiğinde ay dedim,
 Piştiğinde kırıp yağ yedim.

Yer fıstığı

Özlerin asili,
 Yer altında mahsulü
 Kabuğuna, koza dersiniz,
 Rengine altın dersiniz.
 Özü kozaya benzer,
 İçi altına benzer.
 Koza gibi şekli var,

Ekiladi har bahor.
Pishgach kovlab olinar,
Undan halvo qilinar (300: 2386)

Lola:

Bir faslda ochiladi,
Tabiatga sochiladi.
Qizil yoqut piyolalar,
Buni toping bolalar (300: 2387)
Qirda qizil shapkali,
Bir ungurda turadi.
Kimki oldidan o'tsa
Unga salom beradi (300: 2388)
Erta bahor kel qizginam⁸⁷,
Toqqa yoydim qizil gilam (300: 2389)

Gul:

Qishda uyda saqlanar,
Suv purkab ardoqlanar.
Uy havosin yangilar,
Bu jumboqni kim bilar (300: 2390)

Beda:

Eksang unadi,
O'rsang o'sadi (300: 2391)
O'sar joyi ariq labi,
Bo'y taratar rayhon kabi (301: 2392)

Zarpechak:

Sabzavotlar dushmani,
Egri-bugridir tani.
Ko'rinsa biror daraxt,
Shoshib-pishib shu vaqt
Chirmashar xuddi ilon,

Ekilir her bahar.
Piştiğinde kazıp alınır,
Ondan helva yapılır.

Lale

Bir fasılda açılır,
Tabiata saçılır,
Kızıl yakut kadehler
Bunu bilin balalar.
Kırda kızıl şapkali,
Bir yükseklikte durur.
Kim ki önünden geçse,
Ona selam verir.
İlkbaharda gel kız bakalım!
Dağa kızıl halı serdim.

Gül

Kışın evde saklanır,
Su serpip bakılır.
Ev havasını yeniler,
Bu bilmeceyi kim bilir?

Yonca

Eksen razı olur,
Biçsen büyür.
Uzar yeri ark lebi
Boy atar reyhan gibi.

Küsküt

Sebzelerin düşmanı,
Eğri büğrüdür teni.
Görününce bir ağaç
Aceleyle bu vakit
Süzülür aynı yılan,

⁸⁷ kel- ve qiz kelimelerinin yeri değişmiş, metinde üç yerde kalgınam iken burada bir yazım yanlış yapılmış, doğrusu *qiz kelginam* olmalı. bk. *Dizin 'kalginam'*

Siqib tanin, so‘rar qon (301: 2393)
Oyog‘ini yerdan uzmay, chiqar tomga,
Karnaylari tebranadi har maqomga (301:
2394)

Qamish:

Son-sanoqsiz qilichli,
Uzun bo‘yli bahodir.
Yotar uzala tushib,
Shovillab bexavotir (301: 2395)

Silos:

Xashak edi,
Chim bo‘ldi (301: 2396)

Ko‘lman o‘tin:

Xirmoni katta, doni yo‘q,
Dastori katta, noni yo‘q (301: 2397)

Yantoq:

Chanqashini bilmay,
O‘sadi cho‘lda.
Tikonlari bor —
Qadalar qo‘lga.
Barglari to‘mtiq,
Bu nima o‘rtoq (301: 2398)

Sıkar tenini, emer kan.
Ayağını yerden kesmeden, çıkar dama,
Borazanları teprenir, her makamda.

Kamış

Sapsayısız kılıçlı,
Uzun boylu bahadır.
Yatar boylu boyunca
Şırıldayıp sakın(ce).

Ambar

Saman (/kuru ot) idi
Çim (/çimen) oldu.

Bir tür ot (?)

Harmanı büyük, tanesi yok,
Sarığı (/tülbenti) büyük, ekmeği yok.

Diken

Susamasını bilmeden,
Yetişir çölde
Dikenleri var
Saplar ele.
Yaprakları kesilen
Bu nedir ortak.

4.2.20. Poliz Ekinlari va Sabzavotlar: Tarla bitkileri ve sebzeler

Tarvuz:

İchi qizil, po‘stloq,
Qop-qora donasi ko‘p.
Donasini tashlaysiz,
Mag‘izini oshaysiz (302: 2399)
O‘zi qip-qizil asal,
To‘ni bor ko‘k baxmal (302: 2400)

Karpuz

İçi kırmızı, kabuk
Kapkarara, tanesi çok.
Tanesini çıkarsanız,
Özüne ulaşırsınız.
Özü kıpkırmızı bal,
Giysisi var yeşil kadife.

Qora qoshli urug'i,
 Choponi ola po'choq,
 Dumalashar paykalda,
 Har biri quchoq-quchoq (302: 2401)
 Ko'k beqasam to'nim bor,
 Ichim baxmal, lolazor.
 Mazam shirin, go'yo qand,
 Meni yegan tortmas dard (302: 2402)
 Dalada yashil buzoq,
 Ilinib yashar tuzoq,
 Semirib yotar uzoq (302: 2403)
 To'ni silliq, tuki yo'q,
 Ichi qizil, ko'ki yo'q.
 Uni cho'qolmas chumchuq (302: 2404)
 Polizdadir bitar joyi,
 To'n kiydi olachipor.
 Shirinlikning asl koni
 Qizil, qora urug'i bor... (302-303: 2405)
 Yashil gumbaz ichida
 Qip-qizil xona.
 Bir xil libos teng bo'yli,
 Ming bir dugona (303: 2406)
 Yum-yumaloq tandircha,
 Ichida qator kulcha (303: 2407)
 Yer sharidak dum-dumaloq,
 Ichi qirmiz, sharbat buloq (303: 2408)
 Beqasamdan to'ni bor,
 Ichi qizil lolazor.
 Ta'mi shirin xuddi qand,
 Uni yegan tortmas dard (303: 2409)

Kara kaşlı tohumu,
 Kaftanı ala kabuk.
 Yuvarlanır ekim yerinde
 Her biri kucak kucak.
 Gök giysim var,
 İçim kadife, lalezar.
 Lezzetim şirin, güya şeker,
 Beni yiyen çekmez dert.
 Tarlada yeşil buzağı,
 Tutunup yaşar tuzak,
 Semirip durur uzak
 Giysisi pürüzsüz, tüyü yok.
 İç i kırmızı, yeşili yok.
 Onu gagalamaz serçe.
 Tarladadır, bittiği yer
 Giysi giydi benekli.
 Şirinliğinin asıl kaynağı
 Kırmızı, kara tohumu var.
 Yeşil kubbe içinde
 Kıp kırmızı hane.
 Aynı giyside aynı boyda
 Binbir arkadaş.
 Yusuvarlak tandırcık,
 İçinde dizi dizi çörek.
 Dünya gibi yusuvarlak,
 İç i kırmızı, şerbet bulak.
 Kumaştan giysisi var,
 İç i kırmızı lalezar
 Tadı şirin aynı şeker,
 Onu yiyen çekmez dert.

Tarvuz urugʻlari:

Qizil uyda yuz aka-uka yashar,
Ular juda biri-biriga oʻxshar (303: 2410)

Qovun:

Katta tuxummi desam,
Toʻni bordir beqasam,
Oʻzi shirindir yesam (303: 2411)

Handalak:

Hidli, shirin shar desam,
Toʻni yoʻl-yoʻl beqasam (303: 2412)
Shirinligi til yorar,
Hidi oʻtkir, boʻyi past.
Pishganini koʻrdimu,
Yeyman deya qildim qasd (303: 2413)

Sabzi:

Yotar yumshoq koʻrpada,
Qator oʻsar har safda.
Barglari ham yam-yashil,
Tusi tilladan asil... (303: 2414)
Qirmizi yuz qiz,
Yer ostidasiz.
Sochlari yer ustida,
Rangi osmon tusida (304: 2415)

Piyoz:

Qavat-qavat toʻni bor,
Har toʻni xuddi qogʻoz.
Oshxonada oʻrin bor,
Yechinmaydi qishu yoz (304: 2416)
Qavat-qavat toʻnini
Doim kiyib oʻltirar.
Toʻnini yechsang agar,

Karpuz çekirdekleri

Kırmızı evde yüz ağabey kardeş yaşar,
Onlar birbirine çok benzer.

Kavun

Büyük yumurta mı desem,
Giysisi vardır kumaş(tan),
Özü şirindir yesem.

Şamama

Kokulu, şirin balon desem,
Giysisi çizgili çizgili kumaş.
Şirinliği dil yarar,
Kokusu keskin, boyu kısa
Olmuşunu gördüm,
Yerim diye niyetlendim.

Havuç

Yatar yumuşak yorganda,
Dizi dizi yetişir her safta.
Yaprakları hem yemyeşil,
Rengi altından asil...
Kırmızı yüz kız,
Yer altındasınız.
Saçları yeryüzünde,
Rengi gök (/yeşil) renginde.

Soğan

Kat kat giysisi var,
Her giysisi aynı kâğıt,
Mutfakta yeri var,
Soyunmaz kış ve yaz.
Kat kat giysiyi
Daima giyip oturur.
Giysisini soysan eğer

Ko'zingdan yosh keltirar (304: 2417)

Qizil bukach xumdonda,

Kokillari maydonda.

O'zidir katta savat,

Choponi qavat-qavat (304: 2418)

Pak-pakana bo'yi bor,

Yetti qavat tuni⁸⁸ bor,

Kimki uni yechtirsar,

Ko'zlaridan yosh oqar (304: 2419)

Ustidagi ko'ylagi,

Xuddi qog'ozga o'xshar,

To'g'rasang jahli chiqib,

Ko'zingni darrov yoshlar (304: 2420)

Qavat-qavat ko'ylagi,

Tuproq uning yuragi.

Bahorda ko'm-ko'k bo'lar,

Kuzda shiraga to'lar.

U bilan ovqat ta'mi —

Mazali. Topping nomin. (304: 2421)

Qavat-qavatdir to'ni,

Fe'li yomondir uning,

Yechsang agar to'nini,

Yig'latadi, bil shuni (304-305: 2422)

Cho'zib ko'm-ko'k naychasin,

Bahramand suv, havodan.

Dum-dumaloq tanini,

Semirtirar hammadan.

Xohi suyuq, xohi quyuq

Oshga beradi (ta'm) ... (305: 2423)

Gözünden yaş akıtır.

Kızıl bükülü sürahide,

Kâkülli meydanda

Özüdür, büyük sepet,

Kaftanı kat kat.

Pek kısa boyu var,

Yedi kat giysisi var,

Kim ki onu soysa,

Gözlerinden yaş akar.

Üstündeki gömleği,

Aynı kâğıda benzer,

Doğrasan kızar,

Gözünü hemen yaşlar.

Kat kat gömleği,

Toprak onun yüreği.

Baharda yemyeşil olur,

Güzde özsuyla dolar.

Onunla öğün yemeği

Lezzetli. Bulun adı nedir?

Kat kattır giysisi,

Huyu yamandır onun,

Soysan eğer giysisini,

Ağlatır, bil bunu.

Ayırın yemyeşil borusunu,

Hisseli sudan, havadan

Yusyuvarlak tenini

Semirtir hep.

İster su, ister kuyu

Aşa verir (tat)...

⁸⁸ to'ni olarak düzeltilmeli.

Kartoshka:

Bir nechtdan ko'zi bor,
 Olma kabi yuzi bor.
 Pishgach, kovlab olinar,
 Qop-qanorga solinar.
 Undan ro'zg'or farovon,
 Kolxoz yeri bunga kon (305: 2424)
 Makonidir dalalar,
 Yer tagida bolalar (305: 2425)

Sholg'om:

Koptok emas dumaloq,
 To'nini yechsa ichi oq.
 Qizil, sariq to'ni bor,
 Sichqon kabi dumi bor (305: 2426)
 Yum-yumaloq, oy emas,
 Sap-sarig'u —moy emas,
 Dumi ham bor, toy emas (305: 2427)
 Dumi bor, sichqon emas,
 Dumaloqqina, koptok emas.
 Rangi sariq, shaftolimas.
 Qani, toping-chi, bu nima? (305: 2428)

Lavlagi:

Ko'rsang xuddi otquloq,
 Chorvamizga yem-tomoq,
 İldizi bir pud kelar,
 Undan shakar, qand qilar (305-306: 2429)

Turp:

Lavlagidan katta emas,
 Sabzilardan oshga solmas.
 Osh bo'lmasa yenilmas,
 Oshga qo'shib yemay bo'lmas (306: 2430)

Patates

Bir kaç tane gözü var
 Elma gibi yüzü var.
 Olgunlaşınca eşip alınır,
 Torbaya çuvala yerleşir.
 Ondan ev (geçimi) bereketli
 Çiftlik yeri buna kaynak.
 Mekânıdır ovalar,
 Yer altında balalar.

Şalgam

Yop değil yuvarlak,
 Giysisini çıkarsa içi ak.
 Kızıl, sarı giysisi var,
 Sıçan gibi kuyruğu var.
 Yusuvarlak, ay değil,
 Sapsarı ama yağ değil,
 Kuyruğu da var, tay değil.
 Kuyruğu var, sıçan değil.
 Yusuvarlak, top değil.
 Rengi sarı, şeftali değil.
 Haydi, bulun! Bu nedir?

Pancar

Görsen aynı at kulağı
 Hayvanlarımıza yem yemek
 Kökü bir pud gelir,
 Ondan şeker, kant yapılır.

Turp

Pancardan büyük değil,
 Havuçgillerden aşı katılmaz.
 Aş olmazsa yenmez,
 Aşla beraber yemeden olmaz.

Karam:

Qator turar egatda,
 Saf tortib kichik-katta.
 Ser vitamin, to'ni qat-qat
 Xomligini yema faqat (306: 2431)
 Qavat-qavat ko'ylagi bor,
 Tugmasi yo'q (306: 2432)
 Yashab yetmish yetti kun,
 Kiyar yetmish yetti to'n,
 Kuzda uzib olinar
 Ovqatlarga solinar (306: 2433)
 Aytay sizga topishmoq:
 Globusdek yumaloq,
 Atir guldek ochilgan,
 Yaproq'i keng, sochilgan.
 Qavat-qavat to'ni bor,
 Elda topgan e'tibor (306: 2434)
 Ko'k to'ni bor qavat-qavat.
 Gohi bo'lar boshi savat.
 Sho'rvaga u fayzdir har on,
 Topping ne u, Salim, Matchon? (306: 2435)

Bodring:

Pishmagani maza,
 Pishgani bemaza (306: 2436)
 Eshigi, oynasi yo'q,
 Hujrada mehmon to'liq (306: 2437)
 Erta bahor ekamiz,
 O'zi ko'm-ko'k ham silliq,
 Archib tuzlab yesangiz,
 Juda muzdek ham suvlik (307: 2438)

Lahana

Dizi dizi durur (bir) arkta,
 Dizilip kùçùk büyük.
 Vitaminli, giysisi kat kat
 Olgunlaşmamışını yeme fakat.
 Kat kat gömleği var,
 Düğmesi yok.
 Yaşar yetmiş yedi gün,
 Giyer yetmiş yedi giysi,
 Güzün kökünden alınır
 Yemeklere yerleşir.
 Sorayım size bilmece:
 Yerküre gibi yuvarlak
 Kokulu gül gibi açılan,
 Yaprığı geniş, saçılan.
 Kat kat giysisi var,
 İlde bulur itibar.
 Gök giysisi var kat kat.
 Bazen olur başı sepet.
 Çorbaya o feyiz her an,
 Bilin nedir, Selim, Metçan?

Salatalık

Pişmemişi lezzetli
 Pişeni lezzetsiz.
 Kapısı, penceresi yok,
 Odada misafir dolu
 Erken ilkbaharda ekeriz
 Özü yemyeşil hem parlak.
 Soyup tuzlayıp yeseniz
 Pek buz gibi hem sulu.

Pomidor:

Qizil rangda tuguncha,
 İchi to'la kulchacha (307: 2439)
 Men ko'rdim qiziq olma,
 Oq emas, qizil olma.
 Daraxtda pishmas biroq,
 O'zi olmadan yumshoq.
 İchi to'la qizil suv,
 Egatlarda pishar u (307: 2440)
 Ko'chatı ko'm-ko'k,
 Guli sap-sariq,
 Mevasi qip-qizil,
 Odamga oziq (307: 2441)
 Polizda yashil palak,
 Mevasi bilqillaydi.
 Misli qizil anordek,
 Qozonda qilpillaydi (307: 2442)
 Uni bilmas kishi yo'q,
 Hamma ko'rishar baham.
 Uychalari berk, qator.
 Na handalak, na anor,
 Pishsa rangi qip-qizil,
 Yesang rohat topar dil ... (307: 2443)

Baqlajon:

Ko'k xalta,
 İchi paxta (307: 2444)
 Jigar emas, jigarrang,
 Bodring singari tarang (307: 2445)

Garmdori:

Bag'ri yonadi lov-lov,
 İchida bordir olov.

Domates

Kızıl renkte düğümcük,
 İçi dolu külçecik.
 Ben gördüm ilginç (bir) elma,
 Ak değil, kızıl elma.
 Ağaçta olmaz ama,
 Özü elmadan yumuşak.
 İçi dolu kızıl su,
 Arklarda olgunlaşır o.
 Fidanı yemyeşil,
 Çiçeği sapsarı,
 Meyvesi kıpkırmızı,
 İnsana azık.
 Tarlada yeşil filiz,
 Meyvesi supsuludur.
 Aynı kızıl nar gibi,
 Kazanda fokurdar.
 Onu bilmeyen kimse yok,
 Herkes paylaşmayı bilir.
 Odaları sıkı, katar
 Ne kavun ne nar,
 Olgunlaşsa rengi kıpkırmızı
 Yesen rahat, bulur dil.

Pathcan

Gök (/mor) torba,
 İçi pamuk
 Ciğer değil, ciğer renk (/kestane renk)
 Salatalık gibi gerilmiş deri.

Kırmızıbiber

Bağrı yanar lav lav,
 İçinde vardır alev,

Berolmayсан hach bardosh,
 Ko'zingdan chiqarar yosh.
 Tekizsang til uchiga,
 Tan berasan kuchiga.
 Gapni aytsang ochig'in,
 Chiqib turar achchig'i... (308: 2446)
 Hidlay desam gul emas,
 Yeyishga ovqat emas.
 Yuzing kabi qip-qizil,
 Yeyman deb qilma hazil (308: 2447)

Qo'ziqorin:

Quyganda jala,
 Yerdan bir gala
 Chiqar soyabon,
 Turar yonma-yon (308: 2448)
 Yomg'irdan so'ng chiqadi,
 Cho'tir qalpoq kiyadi.
 Quyoshni yoqtirmaydi,
 Shamolni chaqirmaydi (308: 2449)
 Ildizi bor, shoxi yo'q,
 Poyasi bor, bargi yo'q,
 Qalpog'i bor, qo'li yo'q,
 Mevasi bor, doni yo'q,
 Tuzlab, qovirib yeyilar,
 Oti nedir, kim bilar (308: 2450)

4.2.21. Oziq-Ovqatlar: Yemek ve yiyecekler

Un:

Qor emas-ku, qordan oq,
 Uyingda bor, ko'rib boq (309: 2451)

Non:

Göstermezsen hiç sabır,
 Gözünden akıtır yaş,
 Değdiren dil ucuna,
 Takdir et gücünü.
 Sözünü etsen açıkça
 Çıkıp durur acısı...
 Kokuyor desem gül değil,
 Yemek (istesem) yemek değil.
 Yüzün gibi kıpkırmızı,
 Yerim deyip kandırma!

Mantar

Döküldüğünde jale,
 Yerden bir sürü
 Çıkar güneşlik,
 Durur yan yana.
 Yağmurdan sonra çıkar.
 Çalık kalpak giyer.
 Güneşi beğenmez.
 Rüzgârı çağırılmaz.
 Kökü var, dalı yok,
 Sapı var, yaprağı yok,
 Kalpağı var, eli yok,
 Meyvesi var, tohumu yok
 Tuzlayıp kavurup yenilir,
 Adı nedir, kim bilir?

Un

Kar değil ama kardan ak
 Evinde var, görüp bak!

Ekmek

Xom kiradi ichkariga,
 Pishib chiqar tashqariga,
 Dasturxonin bezab, doim,
 Darmon bo'lar yosh, qariga (309: 2452)

Tuz:

O'zi qattiq, tosh emas,
 Inson usiz yashamas,
 Lazzat berar taomga,
 Ovqat usiz tatimas (309: 2453)
 Usiz ovqat, ovqat emas (309: 2454)
 Shakar kabi oq mayda,
 Ta'mini ko'r, shirinmas.
 U bor har coy, har uyda,
 Usiz ovqat qilinmas (309: 2455)

Sut:

O'zi suyuq, rangi oq,
 Qilsang bo'lar totli yog' (309: 2456)
 Oppoq bo'lib, qor emas,
 Suyuq bo'lib, suv emas.
 Shirin bo'lib qand emas,
 Qani toping bu nima? (310: 2457)

Sariyog' :

Sarig'-ku, oltin emas,
 Erir, biroq, qor emas (310: 2458)

Suzmaqurut:

Qattiq, nordon, tusi oq,
 Yong'oq kabi yumaloq (310: 2459)

Qand:

Qordan oppoq,
 Qattiq biroq.
 Choyga solsa,

Ham girer icheriye,
 Pişip çıkar dışarıya,
 Sofrayı bezeyip daima
 Çare olur gence, yaşlıya.

Tuz

Kendi katı, taş değil,
 İnsan onsuz yaşamaz,
 Tat verir yemeğe,
 Yemek onsuz tadılmaz.
 Onsuz yemek, yemek değil.
 Şeker gibi ak ufak,
 Tadına bak, şirin değil.
 O var her yerde her evde,
 Onsuz yemek yapılmaz.

Süt

Özü sulu, rengi ak,
 Yapsan olur tatlı yağ.
 Apaktır, kar değil,
 Sıvıdır, su değil,
 Şirindir, şeker değil
 Haydi, bulun bu nedir?

Tereyağı

Sarı ama altın değil
 Erir, fakat kar değil.

Lor

Sert, ekşi, rengi ak,
 Ceviz gibi yuvarlak.

Küp şeker

Kardan apak,
 Katı fakat.
 Çaya atılsa,

Erir shu choq (310: 2460)

Shakar:

O‘zi oppoq, qor emas,

Non bo‘lmaydi, un emas (310: 2461)

Konfet:

Yechib qog‘oz po‘stini,

Topdim bolning do‘stini (310: 2462)

Xo‘rozqand:

Xo‘roz desam qand,

Qand desam xo‘roz (310: 2463)

Choy:

Qaynoq suvga tushsa u,

Yoziladi namlanib.

Xushbo‘y hidlar chiqarar,

Maza berar damlanib (310: 2464)

Avval rosa qaynaydi,

So‘zlashgandek sayraydi.

Goh sovutib, goh issiq

Ichgan kishi yayraydi (311: 2465)

Morojniy:

Qorday oppoq,

Tishlasang chiqar buloq (311: 2466)

Sovug‘i bor, emas qor,

Oppoq hech kim demas qor (311: 2467)

Erir o an.

Şeker

Özü apak, kar değil,

Ekmek olmaz, un değil.

Şeker (/Bayram şeker)

Soyup kâğıt kabuğunu,

Buldum balın dostunu.

Horoz şeker

Horoz desem şeker,

Şeker desem horoz.

Çay

Kaynar suya düşse o,

Süzülür ıslanıp.

Güzel kokular yayar,

Tat verir demlenip.

Önce çok kaynar,

Sohbet eder gibi şakır.

İster soğutup ister sıcak

İçen kişi keyif alır.

Dondurma

Kar gibi apak,

Isırsan çıkar kaynak.

Soğuğu var değil kar,

Apak, hiç kimse demez kar.

4.2.22. Kiyim-Kechak ve Tikish Asboblari: Giyim ve dikiş gereçleri

Kiyim:

Yursang yuradi,

Chopsang chopadi.

Barchada bo‘ladi,

Tanni istadi (312: 2468)

Giyim

Yürüsen yürür,

Koşsan koşar.

Herkeste olur,

Teni ister.

Pal'to:

Matoda qush tavaqa,
 Ajab yashik yasarlar.
 Oldiga qush qatorlab
 Suyak qulf osarlar (312: 2469)

Do'ppi:

Yarim dunyo, yarim shar,
 Gullab boshimda yashnar (312: 2470)
 To'rt yonida to'rtta oy,
 Boshimga berar chiroy (312: 2471)

Shlapa:

O'zi somon, mol emas,
 Hech buyumdan kam emas.
 Issiqda berar soya,
 Bir kishi-chun kifoya (312: 2472)

Etik:

Bir tug'ishgan ikki yigit,
 Bo'ylari kelar tizdan,
 Qalmaydi sizdan, bizdan,
 Saqlaydi qordan, muzdan (313: 2473)

Botinka:

Bog'lab qo'ysang yuradi,
 Yechib qo'ysang turadi (313: 2474)
 Biz xuddi tug'ishgan aka-ukaday,
 Hamisha ikkimiz birga yuramiz.
 Nonushta vaqtida stol ostida,
 Karavot ostida turamiz tunda (313: 2475)

Kalish:

Tagida g'ij-g'ij tishi,
 Ustida og'zi.
 Ichida qizil ko'ylak,

Palto

Kumašta kuş tabaka,
 Harika kutu düzerler.
 Önüne kuş sıralayıp
 Kemik kilit asarlar.

Takke

Yarım dünya, yarım balon,
 Çiçeklenip başımda parlar.
 Dört yanında dört ay,
 Başıma verir güzellik.

Şapka

Özü saman, mal değil,
 Hiçbir şeyden eksik değil.
 Sıcakta verir gölge,
 Bir insan için kâfi.

Çizme

İkiz kardeş, iki yiğit,
 Boyları olur dizde,
 Kalmaz sizde bizde,
 Saklar kardan buzdan.

Bot, çizme

Bağlayıp bıraksan yürür,
 Çözüp bıraksan durur.
 Biz aynı karından ağabey kardeş
 Hep ikimiz birlikte yürürüz.
 Kahvaltı vaktinde masa altında,
 Akşam vaktinde dururuz yatak altında.

Lastik ayakkabı

Altında top top dişi,
 Üstünde ağzı.
 İçinde kırmızı gömlek,

Qop-qora yuzi (313: 2476)

Qo'iqop:

Besh og'ayni qo'rasi bir

Xonasi boshqa (313: 2477)

Besh barmog'i bor,

Tirnog'i yo'q (313: 2478)

Dastro'mol:

Bo'yi bilan eni teng,

Guli bor bir burchakda (313: 2479)

Tengdir bo'yi va eni,

Toza tutadi seni.

Guli bor bir burchida,

Bo'lar har, o'quvchida.

Uning coyi-chi cho'ntak,

Tozalikka u kerak (313: 2480)

Oppoq o'zi, to'rt burchak,

Turar coyidir cho'ntak (314: 2481)

Tugma:

Birlashtirib kiyimni,

Issiq tutadi bizni (314: 2482)

O'zi bo'lar yumaloq,

Rangi har xil: qora, oq...

Yaqin do'sti ip-igna,

O'quvchi busiz yurma (314: 2483)

Taroq:

Vaqt bilan soch tishlar,

Oynaga qarab ishlar (314: 2484)

Og'zi yo'g'u tishi bor

Boshimizda ishi bor (314: 2485)

Og'zi yo'q, ko'rsang qator,

Milki to'la tishi bor.

Kapkara yuzi.

Eldiven

Beş arkadaş ahır bir

Hanesi başka.

Beş parmağı var,

Tırnağı yok.

Mendil

Boyu ile eni denk,

Çiçeği var bir köşede.

Denktir boyu ve eni,

Taze tutar seni.

Gülü var bir köşesinde,

Olur her öğrencide.

Onun yeridir cep,

Tazeliğe o gerek.

Apak kendi, dört köşe,

Durma yeridir cep.

Düğme

Birleştirirp giyimi,

Sıcak tutar bizi.

Özü olur yuvarlak,

Rengi her çeşit: kara, ak...

Yakın dostu iğne ip,

Öğrenci onsuz yürüme!

Tarak

Vaktiyle saç dişler,

Aynaya bakıp işler.

Ağzı yok ama dişi var,

Başımızda işi var.

Ağzı yok, görsen katar,

Kenarında dolu dişi var

Yonimizda yuradi,
Ozodalik ishi bor (314: 2486)

Qaychi:

Barmoqlarga tarmashgan,
Yemishi mayin latta.
Tikish, bichish ishlarda
Hisobsiz juda katta (314: 2487)
Bor edi ikki pichoq,
Birga turishar har choq,
Qilgan ishlari yaxshi,
Agar yurishsa qarshi
Shundagina ish bitar,
Bichiqchi kiyim bichar... (314: 2488)

İgna:

O'zi po'latdan barchaga kerak,
Dumining uzunligi misli terak (314: 2489)
Jajji soldatcha o'zi,
Faqat bittadir ko'zi.
Tikuv ishiga yarar,
Qatim-qatim ip yamlar (315: 2490)
Orqaga borar u, olg'a borar,
Kokili ketida sudralib yurar.
O'zi hamma uchun tikadi kiyim,
Yalang'och yashaydi, libos ko'rmaydi
(315: 2491)
Do'stimning bo'yi yetgan,
Yalqovdir o'ta ketgan.
İshlamas o'z-o'zidan,
İp o'tkazib ko'zidan,
Boshlasangiz ish qilar,
O'rgatib sizga hunar... (315: 2492)

Yanımızda yürür.
Tertipli işi var.

Makas

Parmaklara tırmanan,
Yiyeceği ince toz bezi.
Dikme biçme işlerinde
Hesapsız çok büyük.
Var idi iki bıçak,
Birlikte dururlar hez zaman
Yaptığı işleri yahşı,
Eğer yürüseler karşı
Buncacık iş biter,
Terzi giysi biçer.

İğne

Özü çelikten, herkese gerek,
Kuyruğunun uzunluğu kavak gibi.
Ufak askercik özü,
Fakat birdir gözü.
Dikme işine yarar,
Kat kat ip yutar.
Arkaya gider o öne gider
Kâkülü arkasında sürünüp yürür.
Kendi herkes için diker giyim,
Çıplak yaşar, elbise görmez.

Dostumun boyu yeter,
Tembelden öte tembel
İşlemez kendiliğinden,
İp geçirip gözünden
Başlasanız iş tutar,
Gösterip size hüner...

Angishvona:

Bir chuqurda ming chuqur,
Chuqurni igna cho'qir (315: 2493)

Ko'zoynak:

Buvinnda bor bir chiroq,
Yonib turmaydi biroq,
Ish tikar bo'lsa buvim,
Ta'qib oladi har choq (315: 2494)

Tikish mashinasi:

Bir tishi bor tishlaydi,
Tishlaganda kishnaydi.
Kishnab, kishnab ishlaydi,
Ishlab ko'nglin xushlaydi (315: 2495)
Chevarlarga kerak doim,
Ishlatishar: opam, oyim.
Ipni sarflab, yurar "g'iz-g'iz",
Yo'llarida qoldirar iz (315: 2496)
Katta maydon chetidan,
Asta yayov ketadi.
Yetib borgan manzilga,
Sizga ko'ylak bitadi (315-316: 2497)

Santimetr:

Yuzta aka-uka,
Hammasi baravar.
Qani o'ylab toping-chi,
Kim ekan o'zi bular (316: 2498)

Zont:

Hassali qalpog'im bor,
Yomg'ir yoqqanda darkor. (316: 2499)
Ustuni bor, tomi bor,
Uy emas, ayvon emas.

Yüksük

Bir çukurda bin çukur,
Çukuru iğne vurur.

Gözlük

Ninemde var bir ışık,
Yanıp durmaz ama,
Kumaş diker olsa ninem
Takar her zaman.

Dikiş makinesi

Bir dişi var dişler,
Dişlediğinde kişner.
Kişneyip kişneyip çalışır,
Çalışıp mutlu eder (/gönlü hoş eder)
Terzilere gerek daima,
İşletirler; ablam, annem.
İpi kullanıp gider "giz-giz"
Yollarında bırakır iz.
Büyük meydan kenarından,
Yavaş yavaş gider.
Ulaştığında menzile,
Size gömlek biter.

Santimetre

Yüz ağabey kardeş
Hepsi beraber.
Hadi düşünüp bul!
Kim imiş özü bunların.

Sundurma

Sopalı kalpağım var,
Yağmur yağdığında gerek.
Direği var, çatısı var,
Ev değil, eyvan değil.

Yomg'ir yog'sa, yog'sa qor,
İshlaru hordim demas (316: 2500)

Cho'tka:

Ming tishi bor qayiqcha,
Chang-to'zonni yoqtirmas.
Kiyimingda ko'rsa chang,
İshga tushar jim turmas (316: 2501)
Suv, ko'piksiz tozalayman usti boshim,
Sovun emas, qo'limdagi nima, Hoshim.
(316: 2502)

Bir sirpanib, kiyimdan
Olib ketadi gubor,
O'zi kichik bo'lsa ham,
Yuzlab oyoqlari bor (316: 2503)

Yağmur yağsa, yağsa kar,
Çalışır o, yorulduğum demez.

Fırça

Bin dişi var kayıkçık,
Tozu toprağı sevmez.
Giysisinde görse toz.
İşe koyulur sessizce, durmaz.
Susuz köpüksüz üstümü başımı temizlerim.
Sabun değil, elimdeki nedir, Haşim?

Bir kayarım giysiden
Çıkıp gider toz,
Özü küçük olsa da
Yüzlerce ayağı var.

4.2.23. Uy, Jihozlar va Xo'jalik Asboblari: Ev alet ve gereçleri)

Uy:

Usti berk, tagi berk, atrofi devor,
Qishda ham, yozda ham odamni yutar
(317: 2504)

Eshik:

Qishin-yozin bir yo'ldan yurgani-yurgan,
Lekin xonaga hatlab kira olmaydi (317:
2505)

Kelsangiz ham, ketsangiz ham har zamonda
Qo'l berishni, yo'l berishni qilmas kanda
(317: 2506)

Eshik tutqichi:

Bir soqchi bor, turadi ostonada,

Ev

Üstü kapalı, altı kapalı, etrafı duvar
Kışın da yazın da insanı yutar.

Kapı

Kışın yazın bir yoldan gitmek için gidilen
Ama eve atlanıp girilmez.

Gelseniz de gitseniz de her zaman,
El verişi yol verişi terketmez.

Kapı kolu

Bir bekçi var, durur girişte,

